



THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ESSENCE OF THE MAIN DIRECTIONS OF OUR NATIONAL STRATEGY AIMED AT IMPROVING THE ACTIVITIES OF THE HUMANE INTERNAL AFFAIRS AGENCIES

Shavkat Dadakhanov
Researcher
FerSU
Uzbekistan, Fergana

ABOUT ARTICLE

Key words: popularism, Internal Affairs system, socio-philosophical essence, national strategy, civil society, human rights, social justice, legal state, public trust.

Received: 16.05.25
Accepted: 18.05.25
Published: 20.05.25

Abstract: This article analyzes from a socio-philosophical point of view the main directions of the national strategy aimed at improving the activities of internal affairs agencies in Uzbekistan on the basis of the principles of popularism. In particular, such aspects as the decision - making of the principles of service aimed at the interests of citizens in the Internal Affairs system, the prioritization of human rights, the development of a culture of communication with the public are explained on the basis of philosophical categories-justice, freedom, social responsibility and trust. The study also reveals on the basis of philosophical approaches the impact of reforms on the social consciousness of society and its role in ensuring social stability in the development of a law enforcement system that works in close cooperation with the people, operating openly and transparently. It also analyzed the ideological and practical basis of the strategy and the modern conceptual interpretation of popularism.

XALQPARVAR ICHKI ISHLAR IDORALARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN MILLIY STRATEGIYAMIZ ASOSIY YO'NALISHLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY MOHIYATI

Shavkat Dadaxanov
Tadqiqotchi
FarDU
O'zbekiston, Farg'on'a

МАQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: xalqparvarlik, ichki ishlar tizimi, ijtimoiy-falsafiy mohiyat, milliy strategiya, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari, sotsial adolat, huquqiy davlat, jamoatchilik ishonchi, ochiqlik va shaffoflik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatini xalqparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirishga yo‘naltirilgan milliy strategiyaning asosiy yo‘nalishlari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Xususan, ichki ishlar tizimida fuqarolar manfaatlariiga yo‘naltirilgan xizmat tamoyillarining qaror topishi, inson huquqlarini ustuvorlikka qo‘yish, jamoatchilik bilan muloqot madaniyatini rivojlantirish kabi jihatlar falsafiy kategoriyalar - adolat, erkinlik, ijtimoiy mas’uliyat va ishonch asosida izohlanadi. Tadqiqotda xalq bilan yaqin hamkorlikda ishlovchi, ochiq va shaffof faoliyat yurituvchi huquqni muhofaza qiluvchi tuzum yaratish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar jamiyatning ijtimoiy ongiga ta’siri va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli ham falsafiy yondashuvlar asosida ohib berilgan. Shuningdek, strategiyaning mafkuraviy va amaliy asoslari hamda xalqparvarlikning zamonaviy konseptual talqini tahlil etilgan.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ СУЩНОСТЬ ОСНОВНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ НАШЕЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ СТРАТЕГИИ, НАПРАВЛЕННОЙ НА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГУМАННЫХ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Шавкат Дадаханов

Исследователь

ФерГУ

Узбекистан, Фергана

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: народовластие, система внутренних дел, социально-философская сущность, национальная стратегия, гражданское общество, права человека, социальная справедливость, правовое государство, общественное доверие, открытость и прозрачность.

Аннотация: В данной статье с социально-философской точки зрения проанализированы основные направления национальной стратегии, направленной на совершенствование деятельности органов внутренних дел в Узбекистане на основе народнических принципов. В частности, в системе внутренних дел на основе философских категорий - справедливости, свободы, социальной ответственности и доверия-трактуются такие аспекты, как установление принципов службы, ориентированных на интересы граждан, приоритет прав человека, развитие культуры общения с общественностью. В

исследовании на основе философских подходов раскрывается влияние реформ на общественное сознание общества и их роль в обеспечении социальной стабильности на пути создания правоприменимельной системы, работающей в тесном сотрудничестве с народом, действующей открыто и прозрачно. Также были проанализированы идеологические и практические основы стратегии, а также современная концептуальная интерпретация народничества.

KIRISH

XXI asrda davlat boshqaruvi tizimlarining samaradorligi ularning xalq bilan bevosita muloqotga kirishish darajasi, ochiqligi va inson huquqlariga nisbatan hurmati bilan belgilanmoqda. Xususan, ichki ishlar organlarining faoliyatini xalqparvarlik tamoyillari asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish bugungi kunda nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-falsafiy zaruratga aylangan. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “*Xalq davlat idoralari emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak*” degan konseptual g‘oya asosida davlat xizmatlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining tub mohiyatini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi [1. 37].

Ichki ishlar tizimi - bu jamiyat va davlat o‘rtasidagi eng nozik, ammo muhim aloqalardan biridir. Uning samarali faoliyati bevosita jamiyatda *ijtimoiy barqarorlik, adolat* va *inson huquqlarining ta’milnishi* bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar idoralarining xalqparvarlikka asoslangan strategik yo‘nalishlar asosida rivojlanishi, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va ijtimoiyadolatni qaror toptirishga xizmat qiladi [2. 115]. Mavzuning dolzarbliji, shuningdek, global miqyosda huquqni muhofaza qilish organlarining demokratik nazorat ostida faoliyat yuritishi, aholining ishonchini qozonishi zaruratidan ham kelib chiqadi. BMT Inson huquqlari bo‘yicha Kengashi tavsiyalarida ham davlat xavfsizlik va ichki ishlar tizimining islohotlari aynan xalqparvarlik, ochiqlik va hisobdorlik mezonlariga asoslanishi kerakligi ta’kidlanadi [3.].

Bugungi kunda O‘zbekistonda ichki ishlar tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, xususan, “Yo‘l xaritalari”, “Jamoatchilik bilan muloqot tizimi” va raqamlashtirish asosida faoliyat yuritish kabi tashabbuslar ushbu strategiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilishni ilmiy tadqiqot sifatida nihoyatda dolzarb va zarur qiladi. Mavzuni chuqr o‘rganish orqali nafaqat ichki ishlar tizimining taraqqiyot yo‘nalishlarini falsafiy jihatdan tahlil qilish, balki ularning ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimiga ko‘rsatgan ta’sirini aniqlash, jamoaviy ongda xalqparvarlik tushunchasini mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi.

ASOSIY QISM

Mazkur tadqiqot falsafiy, huquqiy va ijtimoiy yo‘nalishlar kesishmasida amalga oshirilgan bo‘lib, mavzuning murakkabligi va ko‘p qirrali xarakterini inobatga olgan holda turli ilmiy yondashuvlar va tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik bazasi quyidagi asosiy yondashuvlarga tayanadi:

- Ijtimoiy-falsafiy yondashuv. Bu yondashuv orqali ichki ishlar tizimi faoliyatining insonparvarlik, ijtimoiyadolat, ijtimoiy ong, fuqarolik ishonchi kabi tushunchalar bilan uzbek bog‘liqligi tahlil qilindi. Falsafiy yondashuv, ayniqsa, xalqparvarlik konsepsiyasining mohiyatini ochib berishda, uni g‘oyaviy, qadriyat asosida yoritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qildi. Bu usul orqali ichki ishlar tizimi - jamiyat bilan aloqador ijtimoiy institut sifatida baholandi.

- Tarixiy-mantiqiy tahlil. Ichki ishlar tizimining tarixiy rivojlanish bosqichlari, sobiq sovet davridagi avtoritar tizimdan mustaqillik davriga o‘tish jarayonlari, yangi davrda boshlangan islohotlarning izchil bosqichlari o‘rganildi. Bu metod orqali milliy strategiyaning tarixiy zaruriyati va hozirgi davrdagi dolzarbligi asoslab berildi. Masalan, 1990-yillarning boshida xavfsizlik idoralari asosan nazorat va repressiv funksiyaga ega bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ularning jamiyatga xizmat qiluvchi, xalqparvar institut sifatida shakllanishi tarixiy taraqqiyot natijasi sifatida izohlandi.

- Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili. Ichki ishlar sohasidagi islohotlarni yoritishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Hukumat qarorlari, Ichki ishlar vazirligi nizomlari, “Yo‘l xaritalari”, strategik dasturlar o‘rganildi. Ular orqali davlat siyosatining amaliy asoslari, xalqparvarlik tamoyilining qonuniy asosda mustahkamlanganligi tahlil qilindi. Jumladan: “Ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish bo‘yicha konsepsiya” (2017); “Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ochiqligini ta’minalash to‘g‘risida”gi qarorlar; “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun (2018).

- Diskursiv-tahliliy usul. Tadqiqotda rasmiy nutqlar, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, ichki ishlar tizimiga oid intervyular va ekspert mulohazalari tahlil qilindi. Ushbu usul orqali ichki ishlar faoliyatiga nisbatan ijtimoiy munosabatlар, ishonch darajasi, aholining bu tizimdan kutayotgan o‘zgarishlari aniqlashtirildi.

- Taqqoslov (komparativ) tahlil. O‘zbekiston tajribasi boshqa davlatlardagi ichki ishlar tizimi islohotlari bilan taqqoslab o‘rganildi. Xususan, Gruziya, Estoniya, Polsha va Janubiy Koreya tajribalari orqali xalqparvarlikka asoslangan ichki ishlar modeli qanday shakllanganligi o‘rganildi. Bu tajribalar O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning umumiy global tendensiyalarga muvofiqligini ko‘rsatdi.

- Kontent-tahlil. OAV, internet manbalari, Ichki ishlar vazirligi rasmiy portalı, ommaviy chiqishlar va tahliliy materiallardan foydalanilib, xalqparvarlik tushunchasining turli kontekstlardagi qo'llanishi va amaliyotdagi ifodalanishi tahlil qilindi.

Ta'kidlash joizki, metodologyaning murakkab, ammo tizimli yondashuvi tadqiqot natijalarining chuqurligi va ishonchlilagini ta'minladi. Har bir metodning bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi xususiyati orqali ichki ishlar tizimidagi milliy strategiyaning ijtimoiy-falsafiy mohiyati keng qamrovli ochib berildi.

Ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish, ularni xalqparvarlik mezonlariga moslashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar O'zbekiston va xorijiy davlatlarda ijtimoiy falsafa, siyosatshunoslik, huquqshunoslik va boshqaruv fanlari doirasida olib borilgan. Quyida ushbu mavzuga oid eng dolzarb nazariy manbalar va ularning tahliliy yondashuvi bayon etiladi.

O'zbekistonlik olimlardan A.X.Saidov, Q.Nazarov, R.Alimov, Sh.Qosimov va K.Xojiyevlarning asarlarida huquqiy davlat, ijtimoiy qadriyatlar, fuqarolik jamiyat, boshqaru madaniyati hamda davlat va jamiyat munosabatlari falsafiy asosda tahlil qilingan. Ayniqsa, Saidov A.X. o'zining "Fuqarolik jamiyat va huquqiy davlat" nomli asarida ichki ishlar tizimining demokratik institutlar bilan o'zaro munosabatlariga alohida e'tibor beradi. U, ichki ishlar faoliyatining ochiqligi va jamoatchilik bilan aloqasi fuqarolik jamiyat rivojlanishining omili sifatida ko'radi [2. 101-120]. Q.Nazarov esa "Davlat boshqaruvi va ijtimoiy qadriyatlar" asarida davlat idoralari faoliyatini qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish zaruriyatini ilgari suradi. Unga ko'ra, xalqparvarlik boshqaruvda mas'uliyat, ijtimoiy axloq vaadolat bilan chambarchas bog'liqdir [4. 88-97]. R.Alimov o'z asarida huquqiy madaniyat va ijtimoiy ongda huquq-tartibot organlarining yangi imiji qanday shakllanishini tushuntirib beradi [5. 115-127]. Ushbu asarlar umumiy nazariy asoslarni beradi, biroq ichki ishlar organlarining xalqparvarlik konsepsiysi doirasida falsafiy mohiyati hali to'liq chuqur tahlil etilmagan bo'lib, aynan shu holat ushbu maqola mavzusining yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublokasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" va "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" konsepsiyalari xalqparvarlik g'oyasini amaliy siyosiy yo'nalish sifatida mustahkamlab berdi. Ushbu strategik hujjatlarda ichki ishlar tizimining yangilanishi - bu jamiyatdagi huquqiy madaniyatni rivojlantirish, inson sha'ni va qadr-qimmatini e'zozlashga qaratilganligi alohida ta'kidlanadi [1. 30-44].

M.Fuko va A.Giddensning ijtimoiy nazorat, tartib va tuzilma nazariyalari ichki ishlar tizimini jamiyatdagi hokimiyat va intizomni ta'minlovchi sotsial mexanizm sifatida tahlil qiladi. Ayniqsa, Fuko [8. 170-195.] "nazorat instituti"ning doimiy kuzatuv va sanksiyalar orqali ijtimoiy tizimlarni boshqarishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, O'zbekistonda bu modeldan xalqparvarlikka asoslangan xizmat modeli tomon evolyutsiya ro'y bermoqda. OECD, BMT Inson

huquqlari bo'yicha Kengashi, va Transparency International tomonidan chop etilgan hisobotlarda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatining ochiqligi, aholiga xizmat ko'rsatish darajasi va korrupsiyaviy holatlar ustidan nazorat xalqparvarlik tamoyilining muhim mezonlari sifatida belgilanadi [3.]. Gruziya va Estoniya ichki ishlar islohotlari tajribasi, ichki ishlar xodimlarini fuqaroga xizmat ko'rsatuvchi professional shaxs sifatida qayta ijtimoiylashuvi, O'zbekiston strategiyasi bilan ko'p jihatdan uyg'unlashadi.

O'zbekistonda ichki ishlar idoralari faoliyatini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazaridan tahlil qilishga doir ilmiy adabiyotlar mavjud bo'lsa-da, ular ko'proq huquqiy yoki boshqaruv nuqtai nazaridan yondashgan. Xalqparvarlik konsepsiysi esa hozirgi kunda yangicha falsafiy mazmun kasb etmoqda. Bu esa mavzuning yanada chuqur falsafiy o'rganilishini, ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy asoslar,adolat va ishonch doirasida tahlil qilinishini zarur qiladi.

NATIJALAR VA MUNOZARALAR

Ichki ishlar tizimining islohotga uchragan zamonaviy modeli, uni fuqaroga xizmat qiluvchi, ochiq va adolatli tizimga aylantirishga qaratilgan strategik yondashuvlar, so'nggi yillarda ijtimoiy-falsafiy tahlil nuqtai nazaridan sezilarli natijalarni keltirmoqda. Quyida bu natijalar va ular atrofida olib borilgan falsafiy munozaralar yoritiladi:

Xalqparvarlik tamoyiliga asoslangan davlat boshqaruvining shakllanishi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ichki ishlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, fuqarolar bilan ochiq muloqot, tezkor javob berish, inson huquqlarini ustuvor qo'yish, xizmat madaniyatini oshirish - bularning barchasi xalqparvarlik g'oyasining amalda ifodasidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "*Har bir rahbar, har bir davlat xizmatchisi o'z faoliyatida eng avvalo xalq manfaatiga xizmat qilishi shart*" [1. 37].

Bu holat Fuko tomonidan ta'riflangan "disiplinaga asoslangan hokimiyat" dan farqli o'laroq, fuqarolarning ishonchiga asoslangan "quyi qatlam bilan hamkorlikdagi boshqaruv" modelining yuzaga chiqayotganini ko'rsatadi [8. 333.].

Ichki ishlar tizimining sotsiologik imiji va ijtimoiy ongi. Tadqiqotda tahlil qilingan sotsiologik ma'lumotlar ichki ishlar tizimiga bo'lgan jamiyat munosabati so'nggi yillarda o'zgarib borayotganini ko'rsatadi. Masalan, Ichki ishlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Jamoatchilik kengashlari" orqali aholining muammolariga quloq tutish, "Xavfsiz hudud" konsepsiysi doirasidagi islohotlar fuqarolarda ijobiy obraz shakllantira boshladi. Alimovning fikricha, huquqtartibot idoralari faoliyatidagi ochiqlik va jamoatchilik bilan hamkorlik fuqarolarda huquqiy madaniyatning shakllanishida asosiy omillardan biridir. Bu esa ijtimoiy-falsafiy jihatdan ijtimoiy ishonch va ijtimoiy kontrakt tushunchalari bilan bog'liq [5. 224.].

Tashkilotning ichki transformatsiyasi va shaxsiy mas'uliyat. Ichki ishlar xodimining shaxsiy javobgarligi, axloqiy poydevori, professional madaniyati, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash

qobiliyati - xalqparvarlik strategiyasining muhim mezonlaridan hisoblanadi. Xodimlar faqat rasmiy vakolat emas, balki ijtimoiy mas'uliyat egasi sifatida faoliyat yuritishi talab etilmoqda. Bu o'zgarishlar Giddensning "strukturatsiya nazariyasi" nuqtai nazaridan tizimning ichki ijtimoiy qayta qurilishi sifatida baholanadi [9. 402.].

Ichki ishlar faoliyatining falsafiy kategoriyalar bilan bog'liqligi. Xalqparvarlik tamoyili nafaqat xizmat ko'rsatish sifati, balki ichki ishlar idoralari faoliyatining ontologik va aksiologik asoslarini ham o'zgartirmoqda. Endilikda asosiy mezonlar quyidagilardan iborat: adolat - har bir qaror va harakatda ijtimoiy tenglik va haqiqatga tayangan holda yondashish; inson qadr-qimmati - jismoniy xavfsizlikdan tashqari ma'naviy hurmatni kafolatlash; erkinlik - har qanday faoliyatda shaxsiy huquqlarning buzilmasligiga kafolat. Shu jihatdan, xalqparvarlik tushunchasi ijtimoiy-falsafiy g'oya sifatida chuqur tahlilga muhtoj bo'lib, u jamiyat va hokimiyat o'rtaсидаги о'заро ишонч пойdevorini mustahkamlaydi.

Xalqaro baholash va milliy strategyaning global mosligi. BMT Inson huquqlari bo'yicha Kengashining 2022-yilgi hisobotida O'zbekistonda ichki ishlar islohotlari fuqarolik nazaratiga ochiqligi, shaffofligi va inson huquqlarini ta'minlash yo'lidagi muhim bosqich sifatida ijobjiy baholangan [10. 45-49]. Bu esa milliy strategyaning global tendensiyalarga uyg'unligini ko'rsatadi.

Tadqiqotimiz natijalarga ko'ra, ichki ishlar tizimining xalqparvarlik asosida takomillashuvi - bu shunchaki institutsional yoki tashkiliy islohot emas, balki jamiyatdagi falsafiy ong, qadriyatlar tizimi va boshqaruv madaniyatining chuqur yangilanishidir. Bunday o'zgarishlar mustahkam huquqiy asos, yuqori axloqiy saviya va fuqarolik jamiyatining faolligi orqali rivojlanadi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqotimiz doirasida, quydagi ilmiy-nazariy xulosalarini taqdim etmoqdamiz:

1. Xalqparvarlik - falsafiy g'oya sifatida ijtimoiy boshqaruv paradigmasi ekamligi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqparvarlik tamoyili oddiy xizmat ko'rsatish mezonidan iborat emas, balki u jamiyatning davlatga bo'lган ishonchi, ijtimoiy kontrakt, adolat, mas'uliyat va inson sha'ni kabi falsafiy tushunchalar bilan uzviy bog'langan. Bu esa uni mustaqil falsafiy kategoriya sifatida tahlil qilishni talab etadi.

2. Ichki ishlar tizimining ijtimoiy-falsafiy transformatsiyasi jarayoni sodir bo'layotganligi. Ichki ishlar organlari jamiyatda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi, balki fuqarolarning ishonchini qozonuvchi axloqiy-ma'naviy institutga aylanishi zarur. Mazkur o'zgarish "boshqaruvning xizmat ko'rsatish modeli" doirasida yangi turdag'i sotsial institutlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

3. Davlat-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar falsafiy negizda qayta shakllanayotkanligi. Tahlillar ko‘rsatadiki, ichki ishlar organlari faoliyatidagi islohotlar jamiyatning boshqaruv tizimiga bo‘lgan yondashuvini ham o‘zgartirmoqda. Endilikda fuqarolar davlatni sanksiyalovchi emas, balki ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi tizim sifatida qabul qila boshlamoqda. Bu - fuqarolik jamiyati shakllanishining real ifodasıdir.

4. Xalqparvarlik strategiyasi - huquqiy davlat qurilishining poydevori ekanligi. Falsafiy jihatdan qaralganda, xalqparvar ichki ishlar tizimi - bu erkinlik va tartib o‘rtasidagi muvozanatni saqlagan holda, adolatli ijtimoiy muhitni ta’minlashga xizmat qiluvchi vositadir. Bu esa huquqiy ong va madaniyat darajasining oshishiga olib keladi.

5. Mavzuning ilmiy-innovatsion istiqbollari mavjudligi. Mazkur yo‘nalishda keyingi tadqiqotlar xalqparvarlik konsepsiyasini kengaytirish, uni boshqa sohalar (sud, prokuratura, ta’lim, tibbiyot) faoliyatida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish, falsafiy kategoriya sifatida metodologik tizimlashtirish kabi masalalarga yo‘naltirilishi zarur.

Shuningdek, quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni ham havola qilmoqdamiz:

- “Xalqparvar boshqaruv” konsepsiyası asosida ilmiy markaz tashkil etish. Ichki ishlar tizimi faoliyatini ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida o‘rganadigan tarmoq markazi tashkil etish. Bu markaz xalqparvarlik konsepsiyasining falsafiy va metodologik asoslarini ishlab chiqadi.

- Ichki ishlar xodimlari uchun ijtimoiy-axloqiy kodeks ishlab chiqish. Bu hujjatda xizmat qiluvchi har bir xodim uchun mas’uliyat, adolat, inson sha’ni va xizmat etika mezonlari aniq belgilanadi.

- Xalq bilan ishlashga oid modul kurslarini tayyorlash va joriy qilish. Ichki ishlar xodimlari uchun “psixologik muloqot”, “stress boshqaruvi”, “fuqarolik ishonchini tiklash” kabi mavzularini o‘z ichiga olgan zamonaviy o‘quv dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

- Jamoatchilik kengashlarining vakolatlarini kengaytirish. Ularning faoliyatini nafaqat maslahatchi, balki baholovchi va monitoring olib boruvchi tuzilma sifatida mustahkamlash. Shuningdek, ular faoliyatini Ichki ishlar vazirligining rasmiy hisobotlariga kiritish.

- Ichki ishlar faoliyatining ochiqligini oshirish uchun onlayn monitoring tizimini yaratish. Har bir viloyat bo‘yicha aholining ariza/murojaatlariga javob berish statistikasi, xizmat sifati, xodimlar odob-axloqi bo‘yicha ochiq reytinglar joriy etilishi kerak.

- Xalqparvarlik tamoyilini media orqali keng targ‘ib qilish. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatida ijobiy obraz yaratish, aholining ishonchini mustahkamlash, korrupsiyaga qarshi kurashda faollikni oshirish uchun muntazam media kampaniyalar (film, intervju, eslatmalar) yo‘lga qo‘yilishi lozim.

- “Xalq ovozi” analitik platformasi. Aholi ichki ishlar organlari faoliyati yuzasidan real va anonim fikr-mulohazalarini bildiradigan raqamli portal yaratish orqali ijtimoiy tahlil va islohotlarni baholashni tizimlashtirish.

- Sun’iy intellekt asosida xizmat monitoring. Murojaatlarni avtomatik tahlil qilish, xodimlarning fuqarolarga munosabatini aniqlashda AI tizimlaridan foydalanish orqali xizmat sifatini muntazam nazorat qilish.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston. 2022. - B. 37.
2. A.X.Saidov Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat. - Toshkent: Adolat, 2005. - B. 115.
3. <https://www.unhcr.org/global-trends-report-2022>
4. Q.Nazarov Davlat boshqaruvi va ijtimoiy qadriyatlar. - Toshkent: O‘zbekiston, 2008. - B. 210.
5. R.Alimov Huquqiy madaniyat va fuqarolik jamiyati. - Toshkent: Ma’naviyat, 2010. - B. 224.
6. Sh.Qosimov Ijtimoiy qadriyatlar va boshqaruv madaniyati. - Toshkent: Fan, 2012. - B. 196.
7. K.Xojiyev Davlat boshqaruvi va ijtimoiy qadriyatlar. - Toshkent: Adolat, 2014. - B. 172.
8. M.Foucault Discipline and Punish: The Birth of the Prison. - New York: Vintage Books, 1995. - P. 333.
9. A.Giddens The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. - Cambridge: Polity Press, 1984. - P. 402.
10. Annual Report on Human Rights Practices 2022. - Geneva: UN Publications, 2022. - P. 118.
11. Global Corruption Report: Public Sector Integrity. - Berlin: Transparency Int., 2020. - P. 150.
12. Government at a Glance 2021. - Paris: OECD Publishing, 2021. - P. 246.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi PQ-3165-son qarori. Ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish konsepsiyasini to‘g‘risida. - Xalq so‘zi gazetasi, 2017-yil 11-avgust, №159. // URL: <https://lex.uz/docs/-3297204>